

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'lqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloyevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnı rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози	161
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboievich , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojoyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
Алимова София Розумбаевна , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganova Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami	386
Xайдарова Малика Шакирджановна , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiiev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



IPONING MUVAFFAQIYATLILIK DARAJASINI ANIQLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Saydullayev Shaxzod Sherzodovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: So'nggi yillarda davlat mulkini xususiyashtirishning urf bo'layotgan zamonaviy turlaridan biri – IPO (aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish) rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalar tomonidan investitsiyalarni jalb qilishning asosiy manbayi sifatida foydalanimoqda. Biroq, O'zbekistonda o'tkazilgan IPOlar ko'pgina ilmiy ishlarda muvaffaqiyatsiz IPO sifatida e'tirof etilib, aynan qanday sabablarga ko'ra baholangani ochiqlanmagan. Mazkur maqolada IPO ning muvaffaqiyatlilik darajasini ifodalovchi indikatorlar taklif etilgan bo'lib, mazkur indikatorlarning O'zbekiston uchun chegaraviy qiymati ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ommaviy chiqish, IPO oldidan rejalashtirish, IPO ko'rsatkichlari, birinchi kunlik nasos, IPO muvaffaqiyati, muvaffaqiyatning bevosita ko'rsatkichlari, muvaffaqiyatning uzoq muddatli ko'rsatkichlari, kompaniya brendining tan olinishi

Abstract: In recent years, one of the modern types of privatization of state property – IPO (initial public offering) – is used by companies in developed countries as the main source of investment. However, IPOs conducted in Uzbekistan are recognized as unsuccessful in many scientific works, and for what reasons, it is not disclosed. This article proposes indicators that reflect the level of success of an IPO, and develops a threshold value for these indicators for Uzbekistan.

Key words: going public, pre-IPO planning, IPO performance, a first-day pump, IPO success, direct indicators of success, long-term indicators of success, company brand recognition

Аннотация: В последние годы один из современных видов приватизации государственного имущества – IPO (первичное публичное размещение акций) – используется компаниями развитых стран в качестве основного источника привлечения инвестиций. Однако проводимые в Узбекистане IPO во многих научных работах признаются неудачными, и по каким причинам, не раскрывается. В данной статье предложены показатели, отражающие уровень успешности IPO, и разработано пороговое значение этих показателей для Узбекистана.

Ключевые слова: выход на биржу, планирование перед IPO, результаты IPO, насос первого дня, успех IPO, прямые индикаторы успеха, долгосрочные индикаторы успеха, узнаваемость бренда компании

Har qanday kompaniya IPOga chiqar ekan, tadbir oldidan rejalashtirilgan barcha ko'rsatkichlarni zabit etishni va IPO muvaffaqiyatlari o'tishini o'z oldiga maqsad qilib olishi aniq. Kompaniya va anderrayterning nufuzi hamda ularning moliya bozoridagi o'rni ba'zida IPOni muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlamasligi mumkin.

IPOning muvaffaqiyatlilik darajasi va uni baholash metodikasi bo'yicha mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqot olib borilmagan. Xorijiy olimlar tomonidan IPOning muvaffaqiyatlilik darajasi va uni aniqlash uchun foydalanimadigan indikatorlar bo'yicha turlicha izlanishlar olib borilganligiga qaramasdan, muvaffaqiyatlilik tavsifi va indikatorlarning aniq bir mezonlari taqdim etilmagan.

Bizning fikrimizcha, tor ma'noda IPOning muvaffaqiyatlilik darajasi bu – IPOdan oldin kompaniya va anderrayter tomonidan erishilishi ko'zda tutilgan barcha ko'rsatkichlarni qo'lga kiritishidir. Keng ma'noda esa bu IPO natijasida kompaniyaning katta miqdorda kapital jalb qilgani, kompaniyaning bozor kapitallashuvi darajasi sezilarli darajada oshgani, o'zining brendi orqali tanilgani hamda fond birjalarining listing talablariga to'g'ri kelishi kabi ko'rsatkichlarni qayd etishidir.

Ilmiy adabiyotlarda IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini baholashning bir necha usullari mavjud.

Birinchi usul Dean va Kohenlar tomonidan keltirilgan bo'lib, IPOning muvaffaqiyati IPOdan olingan umumiy summadan anderrayterga xizmatlar uchun to'langan summani chiqarib tashlash bilan belgilanadi.



Ikkinchisi usul Uelburn va Endryus tomonidan taklif qilingan bo'lib, IPOning muvaffaqiyatlilik darajasi aksiyalarni ommaviy joylashtirish narxi va aksiyaning balans qiymati o'tasidagi farqni taklif narxiga bo'lish orqali aniqlash taklif etilgan.

Uchunchi usul Tobinning "Q" ning o'zgartirilgan hisob-kitob usuli bo'lib, ommaviy joylashtirish paytidagi aksiya narxini uning balans qiymatiga bo'lish orqali aniqlash taklif etilgan.

IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlashning So'nggi usuli bu kompaniyaning IPOdan keyingi bozor kapitallashuvi yoki bozor qiymatini aniqlash hisoblanadi. Ya'ni kompaniyaning bozor qiymati IPOdan so'ng oshadigan bo'lsa uni muvaffaqiyatl deb hisoblash taklif etilgan.

IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlashning o'ziga xos indikatorlari mavjud bo'lib, mazkur indikatorlarni 2 ta yirik guruhga bo'lib o'rganishni lozim topdik (1-rasm).



1-rasm: IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash indikatorlarining guruhlanishi

Yuqorida rasmda keltirilgan indikatorlarni birma-bir tavsiflab chiqamiz.

Muvaffaqiyatning bevosita indikatorlari

IPOga chiqarilgan aksiyalar paketning to'liq joylashtirilishi

IPOning muvaffaqiyatlili o'tganligining eng asosiy ko'rsatkichi bu joylashtirilishi rejalahtirilgan aksiyalarning barchasini yangi aksiyadorlarga sotilishidir. Kompaniya o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini ko'pgina hollarda aksiyalarning IPOda 100 % joylashtirilishi asosida hisob-kitob qiladi. Aynan shu maqsadda kompaniya va anderrayter aksiyalarni imkon qadar barchasini sotilishi uchun turli xil sa'y-harakatlar olib boradi. Eng asosiy indikator sifatida prognoz ko'rsatkichlarga erishilmagan taqdirda IPOni muvaffaqiyatsiz deb hisoblash mumkin bo'ladi.

IPOga chiqarilgan aksiyalarning maksimal narxda joylashtirilishi

Kompaniyaning aksiyalari anderrayter bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan ma'lum bir narx diapazonida investorlarga taklif etiladi. IPO doirasida kompaniya aksiyalari diapazonning maksimum narxi bilan sotilgan taqdirda bu kompaniya jalb qilishni prognozlashtirgan kapitalni to'liq qamrab olishini va rejalahtirgan loyihalarni amalga oshishini anglatadi. Kompaniyaning aksiyalari auksion metodi bilan taqsimlanib, bunda kim eng yaxshi narxni taklif etishiga qarab aksiyadorga aylanadi.

Birinchi kundagi "pamp"

Birinchi kundagi "pamp" muvaffaqiyatlili IPO indikatorlari ichida eng ko'p gapirladigan va tadqiqotlar olib borilgan ko'rsatkichlardan biridir. Kompaniyaning yopilish narxi uning ochilish narxidan sezilarli darajada oshganida "pamp" paydo bo'ladi. Qimmatli qog'ozlarga kutilganidan yuqori talabni ko'rish juda yaxshi bo'lsa-da, birinchi kundagi "pamp" ham kompaniyaning aksiyalari past baholangan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi, ya'ni kompaniya o'zining ommaviy bozordagi debyutida ko'proq daromadga ega bo'lishi mumkin edi degan xulosani anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, IPO o'tkazilib, aksiyalar ikkilamchi bozorga chiqqan kundagi narxning IPO da taklif etilgan narxga yaqin yoki past bo'lishi kompaniyaning to'g'ri baholanganini anglatadi va muvaffaqiyatlili joylashtirish ko'rsatkichlardan biri sanaladi. Biroq, mazkur ko'rsatkich investorlar nuqtayi nazaridan qaralganda aksiyaning IPO narxidan birinchi kun yopilish narxi yuqoriroq bo'lishi foydaliroq hisoblanadi.

Shuningdek, birinchi kundagi pamp kompaniyaning taniqliligini oshirishi mumkin bo'lgan katta hajmdagi media axborotlarini yaratishga moyilligi bilan ajralib turadi.

Jalb qilingan kapital

Bizga ma'lumki, kompaniya aksiyalarini ommaviy joylashtirishda qancha aksiyani taklif etishini hamda har bir aksiya uchun narx diapazonini belgilaydi. Mazkur ko'rsatkichlar kompaniya ommaviylashish ortidan kapitalini



qanchaga ko'paytirishni rejalashtirayotganini aniqlashda xizmat qiladi. Masalan, yaqinlashib kelayotgan IPO da "Uzauto Motors" AJ har bir aksiya uchun 70 ming so'mdan 85 ming so'mga bo'lgan 13,5 million aksiyalarni sotishni rejalashtirgan. Agar kompaniya IPO da ushbu maqsadga erishsa, ya'ni aksiyalarni diapazonning maksimum narxida to'liq sota olsa, u 1,15 trln. so'mni tashkil qilishi mumkin. Agar kompaniya IPO da kapitalni jalg qilish maqsadiga to'liq erishsa yoki undan oshib ketsa, bu uning ommaviy joylashtirish debyuti muvaffaqiyatli bo'lganligining aniq belgisidir.

Muvaffaqiyatning yaqin va uzoq muddatli indikatorlari

Prognozlarning bajarilishi

Kompaniya ommaga oshkor bo'lgandan so'ng, erishilgan natijalar IPO oldidan belgilangan prognozlarga mos kelish yoki kelmasligini tahlil qilish bo'yicha yuqori darajadagi o'rGANISHLAR o'tkaziladi. An'anaga ko'ra, investorlar va fond bozori tahlilchilari kompaniyaning ommaviy debyutidan keyin kamida sakkiz chorak (yoki ikki yil) davomida o'z daromadlari bo'yicha hisobot prognozlariga javob berishini kutishadi. Bu davr kompaniyaning ommaviy bozor ishonchini qozonish imkoniyatiga ega bo'lgan bir turdag'i "sinov" sifatida qaraladi. Agar kompaniyalar ushbu davrda o'zlarining prognozlarini bajara olmasalar, bu uzoq muddatga investorlarning kompaniya va uning aksiyalariga bo'lgan ishonchini buzishi mumkin.

Kompaniya brendining tanilishi

Xorij tajribasida IPO ga chiqadigan kompaniyalar asosan noma'lum va mashhur bo'lmagan kompaniyalar bo'ladi, biroq, agar ular IPOni muvaffaqiyatli amalga oshira olsalar, ommaviy axborot vositalarining tadbir atrofidagi qo'shimcha qiziqish va doimiy axborotlarni yetkazish orqali kompaniyaning tanililigi ko'tarilishi mumkin. IPO asosida kompaniya brendining tanilishini qanchalik oshirish mumkinligini o'chash qiyin bo'lsa-da, matbuotning ijobjiy axborotlari aksiyalarga bo'lgan talabga ta'sir qilishini inobatga olgan holda IPOning muvaffaqiyatlilagini oshirishi mumkin.

IPO barcha jabhalarda muvaffaqiyat qozonishi deyarli mumkin emas – ba'zi sohalarda u muvaffaqiyat qozonishi mumkin, boshqalarida esa manfaatdor tomonlarning kutganlarini qondira olmaydi. Ko'pincha raqbatdosh maqsadlar to'qnashuvi bo'lganligi sababli kompaniya IPOsining muvaffaqiyatini baholashda yaxlit yondashuvni qo'llash muhimdir.

Yuqorida keltirilgan indikatorlarni O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan IPOlar misolida ko'rib chiqishga qaror qildik. Bunda IPOlar o'tkazilgan "Kvarts" AJ va "Jizzax plastmassa" AJ larining ommaviylashuvini tahlil qilish asosida keyingi IPOlar uchun muvaffaqiyatlilik metodikasi ishlab chiqilishi nazarda tutiladi.

Bizga ma'lumki "Kvarts" AJ va "Jizzax plastmassa" AJ larining IPOlar doirasida joylashtirilishi rejalashtirilgan aksiyalarning mos ravishda 54 va 33 foizi sotilgan bo'lib, umumiyligida qilib baho berilganda ushbu ko'rsatkichlar IPOlarning muvaffaqiyatsiz bo'lganligidan dalolat beradi. Biroq, kompaniyalar IPOlarini boshqa ko'rsatkichlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, unda mazkur kompaniyalar aksiyalarining birlamchi ommaviy joylashtirilishi to'laqonli muvaffaqiyatsiz deb bo'lmasligini anglesh mumkin (1-jadval).

1-jadval: "Kvarts" AJ va "Jizzax plastmassa" AJ lari IPOlaring muvaffaqiyatlilik darajasi tahlili¹

Indikatorlar	"Kvarts" AJ	"Jizzax plastmassa" AJ
Muvaffaqiyatning bevosita indikatorlari		
IPOga chiqarilgan aksiyalar paketning to'liq joylashtirilishi	54,1 %	34,8 %
IPOga chiqarilgan aksiyalarning maksimal narxda joylashtirilishi	3 000,0 so'm	3 400,0 so'm
Birinchi kundagi "POP" yoki pamp	133,3 %	41,1 %
Jalg qilingan kapital	7,43 mlrd so'm	1,35 mlrd so'm
Muvaffaqiyatning yaqin va uzoq muddatli indikatorlari		
Prognozlarning bajarilishi	Bajarilmagan	Bajarilmagan
Kompaniya brendining tanilishi	Oshgan	Oshgan

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, barcha ko'rsatkichlar ham salbiy natijani aks ettirmagan. Biroq, shunday bo'lsada, IPOga chiqarilgan aksiyalar paketning to'liq joylashtirilishi va unga mos ravishda jalg qilingan kapitalning prognozlardan kam bo'lishi uni muvaffaqiyatsiz deb tan olinishiga zamin bo'la oladi.

¹ "Toshkent" respublika fond birjasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan



“Kvarts” AJ IPOsining muvaffaqiyatlilik darajasi tahlili

“Kvarts” AJ tomonidan IPOga chiqarilgan aksiyalar soni jamiyat ustav fondining 10 foizini, ya’ni 4 574 934 tani tashkil etib, ularning 54,1 foizi yoki 2 475 269 tasi IPO orqali joylashtirilgan. “Kvarts” AJ IPOsining anderrayteri sifatida TIF Milliy bank belgilangan. Kompaniya va anderrayterning o’zaro kelishuvi asosida bir dona aksiyaning taklif etilishi narxi 3000 so’mdan 9100 so’mgacha diapazonda bo’lgan. Biroq, IPO davomida investorlar tomonidan aksiyalarni sotib olishga bo’lgan talab butun paketning 54,1 foizini tashkil etganligi bois, investorlar arizalari 3000 so’mdan qondirilgan. Shu sababli jalb qilingan kapital miqdori rejalashtirilgan 41,6 mlrd so’mni emas, balki 7,43 mlrd so’mni tashkil etgan.

Shuningdek, rejalashtirilgan kapital jalb qilinmaganligi bois IPOni o’tkazish maqsadi hisoblangan yangi ishlab chiqarish sexini tashkil etish ishlari ham amalga oshmay qolgan. Bundan kelib chiqadiki, “Kvarts” AJ tomonidan o’tkazilgan IPO muvaffaqiyatsiz deb e’tirof etish mumkin.

2-jadval: IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini baholash metodikasi

Indikatorlar	Mezonlari	Minimal chegaraviy qiymat
Muvaffaqiyatning bevosita indikatorlari		
IPOga chiqarilgan aksiyalar paketning to’liq joylashtirilishi	<p>Kompaniya ustav fondiga nisbatan nechadir foiz qo’shimcha chiqarilgan aksiyalarning barchasini IPO orqali to’liq joylashtirish, ya’ni yangi aksiyadorlarga sotish</p> <p style="text-align: center;">FPS_{IPO} ≥100%</p> <p>Bu yerda, IPOga chiqarilgan aksiyalarning to’liq paketi.</p> <p>Kompaniya aksiyalariga bo’lgan talab 100 foizdan oshishi yoki undan kam bo’lmasligi kerak.</p>	<p style="text-align: center;">FPS_{IPO} ≥75%</p> <p>Kompaniya aksiyalariga bo’lgan talab (qondirilgan arizalar soni) IPO uchun chiqarilgan aksiyalar paketining 75 foizi yoki undan yuqori qismini takshil etishi uni muvaffaqiyatli IPO sifatida e’tirof etishga asos bo’ladi.</p>
IPOga chiqarilgan aksiyalarning maksimal narxda joylashtirilishi	<p>IPOga chiqarilgan aksiyalarni belgilangan narx diapazonining eng maksimal narxi bo’yicha to’liq joylashtirish, ya’ni yangi aksiyadorlarga eng maksimal narx bilan sotish</p> <p style="text-align: center;">Max Price_{IPO}=Max Price_{range}</p> <p>Bu yerda, IPO doirasida aksiyalarni eng maksimal narxda sotilishi;</p> <p>IPOga chiqarilgan aksiyalarning narx diapazonidagi maksimal narx.</p> <p>Kompaniya aksiyalari IPO doirasida belgilangan narx diapazonidagi eng maksimal narx bo’yicha sotilishi kerak.</p>	<p style="text-align: center;">Max Price_{IPO}≥Max Price_{range}*75%</p> <p>Kompaniya aksiyalari IPO doirasida belgilangan narx diapazonidagi eng maksimal narxning 75 foizi yoki undan yuqori narxda sotilishi uni muvaffaqiyatli IPO sifatida e’tirof etishga asos bo’ladi.</p>
Birinchi kundagi “pamp”	<p>IPO tadbirlari tugab, qatnashchilar o’rtasida auksion metodi bilan aksiyalarni taqsimlagandan keyingi ikkilamchi bozorda birinchi kundagi aksiyaning yopilish narxi</p> <p style="text-align: center;">Pump_{IPO}≤Auction price_{IPO}*120%</p> <p>Bu yerda, IPO dan keyin aksiyalar savdosining ikkilamchi bozorda birinchi kundagi yopilish narxi;</p> <p>IPO doirasida kelib tushgan arizalarni auksion metodi bilan taqsimlashdagi narx, ya’ni aksiyalarni IPOda sotib olish narxi.</p> <p>IPO dan keyin aksiyalar savdosining ikkilamchi bozorda birinchi kundagi yopilish narxi aksiyalarni IPOda sotib olish narxining 20 foizidan oshishi kompaniyaning IPO doirasida noto’g’ri baholanganini anglatadi hamda kompaniya jalb qilishi mumkin bo’lgan kapitalni olish imkoniyatini cheklaydi.</p> <p>Bu esa IPOni muvaffaqiyatsiz deb e’tirof etishga asos bo’ladi.</p>	<p style="text-align: center;">Pump_{IPO}≥Auction price_{IPO}*120%</p> <p>IPO dan keyin aksiyalar savdosining ikkilamchi bozorda birinchi kundagi yopilish narxi aksiyalarni IPOda sotib olish narxining 20 foizidan oshishi kompaniyaning IPO doirasida noto’g’ri baholanganini anglatadi hamda kompaniya jalb qilishi mumkin bo’lgan kapitalni olish imkoniyatini cheklaydi.</p> <p>Bu esa IPOni muvaffaqiyatsiz deb e’tirof etishga asos bo’ladi.</p>



Jalb qilingan kapital	<p>IPO doirasida kompaniya tomonidan jalb qilingan jami pul mablag'ları</p> $\text{Capital raised}_{\text{IPO}} = \text{FPS}_{\text{IPO}} * \text{Auction price}_{\text{IPO}}$ <p>Bu yerda, IPO doirasida kompaniya tomonidan jalb qilingan kapital hajmi.</p> <p>IPO doirasida kompaniya tomonidan jalb qilingan jami kapital hajmi IPO ga chiqarilgan aksiyalar sonining IPO doirasida kelib tushgan arizalarni auksion metodi bilan taqsimlashdagi narxga ko'paytmasi sifatida aniqlanadi.</p>	$\text{CapR}_{\text{IPO}} \geq (\text{Max Price}_{\text{range}} * 75\%) * \text{FPS}_{\text{IPO}}$ <p>IPO doirasida kompaniya tomonidan jalb qilingan jami kapital hajmi IPO ga chiqarilgan aksiyalar sonining IPOga chiqarilgan aksiyalarning narx diapazonidagi maksimal narxning 75 foizidan kam bo'lgan qiymatiga ko'paytirganda chiqadigan summadan past bo'lishi IPOni muvaffaqiyatsiz deb e'tirof etishga asos bo'ladi.</p>
Muvaffaqiyatning uzoq muddatli indikatorlari		
Prognozlarning bajarilishi	<p>IPO natijasida kompaniya tomonidan amalga oshirilishi belgilangan va prognoz qilingan tadbirlarning bajarilishi holati</p> $\text{Results}_{\text{IPO}} \geq \text{Predictions}_{\text{IPO}}$ <p>Bu yerda, IPO natijalari;</p> <p>IPO prognozlari.</p> <p>IPO natijalari rejalashtirilgan IPO prognozlariga teng yoki undan katta bo'lishi kerak.</p>	$\text{Results}_{\text{IPO}} \geq \text{Predictions}_{\text{IPO}} * 75\%$ <p>IPO natijalari IPO prognozlarining eng kamida 75 foiziga teng bo'lganda, o'tkazilgan IPOni muvaffaqiyatlid deb e'tirof etishga asos bo'ladi.</p>
Kompaniya brendining tanilishi	<p>IPO natijasida kompaniyaning tovar va xizmatlarni sotish, mijozlari soni va bozordagi kapitallashuvi ko'rsatkichlarining ortishi</p> $\text{Turnover}_{\text{IPO}} > \text{Turnover}_{\text{Pre IPO}}$ $\text{Customers}_{\text{IPO}} > \text{Customers}_{\text{Pre IPO}}$ $\text{Market Cap}_{\text{IPO}} > \text{Market Cap}_{\text{Pre IPO}}$ <p>Bu yerda, tovar va xizmatlar aylanmasi, mijozlar soni, kompaniyaning bozor kapitallashuvi ko'rsatkichi.</p> <p>IPO natijasida kompaniyaning tovar va xizmatlarni sotish, mijozlari soni va bozordagi kapitallashuvi ko'rsatkichlari kompaniya IPOga chiqishidan oldingi ko'rsatkichlarning 10 foizga oshgandagi ko'rsatkichga teng bo'lishi yoki undan yuqori bo'lishi, o'tkazilgan IPOni muvaffaqiyatlid deb e'tirof etishga asos bo'ladi.</p>	$\text{Turnover}_{\text{IPO}} \geq \text{Turnover}_{\text{Pre IPO}} * 110\%$ $\text{Customers}_{\text{IPO}} \geq \text{Customers}_{\text{Pre IPO}} * 110\%$ $\text{Market Cap}_{\text{IPO}} \geq \text{Market Cap}_{\text{Pre IPO}} * 110\%$ <p>IPO natijasida kompaniyaning tovar va xizmatlarni sotish, mijozlari soni va bozordagi kapitallashuvi ko'rsatkichlari kompaniya IPOga chiqishidan oldingi ko'rsatkichlarning 10 foizga oshgandagi ko'rsatkichga teng bo'lishi yoki undan yuqori bo'lishi, o'tkazilgan IPOni muvaffaqiyatlid deb e'tirof etishga asos bo'ladi.</p>

Manba: Metodika ilmiy adabiyotlarning bibliografik tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Izoh: Metodikada ko'rsatilgan IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini baholashda foydalilanligan indikatorlar va ularning mezonlari IPO o'tkazishni rejalashtirgan kompaniyaning talablaridan kelib chiqqan holda o'zgarishi mumkin.

"Jizzax plastmassa" AJ IPOsining muvaffaqiyatlilik darajasi tahlili

"Jizzax plastmassa" AJ tomonidan IPOga chiqarilgan jami aksiyalar soni 1 140 246 tani tashkil etib, bu jamiyat ustav fondining 25 foizini tashkil qilgan. IPO natijasida kompaniya aksiyalari jami 5 701 231 tani tashkil etishi rejalashtirilgan. Aksiyalarning taklif etilish narxi diapazoni 3400 so'mdan – 30541 so'mgacha bo'lib, bu holatda ham kelib tushgan arizalar soni jami joylashtirilgan aksiyalar soniga nisbatan qariyb uch baravar kam bo'lib, 34,8 foizini tashkil etgan. Natijada 397659 ta aksiya minimal taklif narxi – 3400 so'mdan aksiyadorlarga sotilgan va rejalashtirilgan 34,8 mlrd so'm o'rniiga 1,35 mlrd so'm kapital jalb qilingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "Jizzax plastmassa" AJ tomonidan o'tkazilgan IPOni ham muvaffaqiyatsiz deb e'tirof etish mumkin.

Demak, IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash indikatorlarining ba'zilari ijobiy, ba'zilari salbiy bo'lgan holatda IPO muvaffaqiyatlid deb bo'lishi yoki bo'lmashi ham mumkin. Indikatorlarning chegaraviy miqdori qanday bo'lishiga qarab ularni ijobiy yoki salbiy deb e'tirof etish mumkin bo'ladi.

Quyidagi jadvalda IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash indikatorlarini baholash metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur metodika kelgisida O'zbekistonda o'tkazilishi rejalashtirilgan IPOlarning muvaffaqiyatlilik darajasini oshirish uchun uslubiy asos sifatida qo'llanilishi mumkin (2-jadval).



XULOSA

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan baholash metodikasi asosida nafaqat o'tkazilgan, balki o'tkazilishi rejalashtirilgan IPO larning muvaffaqiyatlilik darjasini prognoz qilishda foydalanish mumkin. IPO larning muvaffaqiyatlilik darjasini baholash formulasini yuqoridagi mezonlardan kelib chiqqan holda quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\text{Successful}_{\text{IPO}} = (\text{FPS}_{\text{IPO}} * 75\% + \text{Max Price}_{\text{IPO}} * 75\% + \text{Auction price}_{\text{IPO}} * 120\% + \\ + (\text{Max Price}_{\text{range}} * \text{FPS}_{\text{IPO}}) * 75\%) / 100\% = 75 + 75 + 120 + 75 / 100 \geq 3,45$$

Yuqoridagi formuladan kelib chiqib, kompaniya IPO sining muvaffaqiyatlilik darjasining minimal ko'rsatkichi 3,45 deb hisoblandi. Mazkur formula va belgilangan minimal ko'rsatkich assosida Kvarts va Jizzax Plastmassa AJlari IPO larining muvaffaqiyatlilik darjasini hisoblab chiqilib, Kvarts AJ IPO sining muvaffaqiyatlilik darjası – 1,97 ga, Jizzax Plastmassa AJ IPO sining muvaffaqiyatlilik darjası – 1,28 ga teng ekanligi va ikkala IPO ham muvaffaqiyatsiz bo'lganligi aniqlandi.

Shunday qilib, IPO har doim ham kompaniya uchun muvaffaqiyatlili va foydali bo'lmashligi aniqlandi. Aksiyalarni bozorga birlamchi ommaviy joylashtirishdan oldin IPO bilan bog'liq barcha ehtimoliy xarajatlar va risklarni baholash zarur. Muvaffaqiyatlili IPO bilan kompaniya nafaqat o'z faoliyatini barqaror ko'rinishga keltirib, uzoq muddatli moliyalashtirish manbasiga ega bo'ladi, balki muhim "ommaviylik yukini", shuningdek, ommaviy kapitalga xizmat ko'rsatishning yuqori narxini ham o'z bo'yngi oladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aggarwal, R., & Rivoli, P. (1990). The signaling hypothesis: Evidence from the pricing of initial public offerings. *Journal of Financial Economics*, 28(1–2), 57–78.
2. Ritter, J. R. (1991). The long-run performance of initial public offerings. *Journal of Finance*, 46(1), 3–27.
3. Lowry, M., & Schwert, G. W. (2002). IPO market cycles: Bubbles or sequential learning? *Journal of Finance*, 57(3), 1171–1200.
4. Loughran, T., & Ritter, J. R. (2004). Why don't issuers get upset about leaving money on the table in IPOs? *Review of Financial Studies*, 17(1), 45–83.
5. Liu, Y., Ritter, J. R., & Tian, X. (2015). How do pre-IPO shareholders matter in a firm's going public process? *Review of Financial Studies*, 28(7), 1950–1982.
6. Chen, H., & Ritter, J. R. (2000). The seven percent solution. *Journal of Finance*, 55(3), 1105–1131.
7. Cohen, Boyd D. & Thomas J. Dean. "Information Asymmetry and Investor Valuation of IPOs: Top Management Team Legitimacy as a Capital Market Signal." *Strategic Management Journal* 26, no. 7 (2005): 683–90.
8. Welbourne, Theresa & Andrews, Alice. (1996). Predicting the Performance of Initial Public Offerings: Should Human Resource Management Be in the Equation? *The Academy of Management Journal*. 39. 891–919. 10. 2307/256716
9. Singhal, Rajeyev & Fu, Liang & Parkash, Mohinder. (2016). Tobin's q Ratio and Firm Performance. *International Research Journal of Applied Finance*. VII. 10. 0704/article-2
10. Jay Ritter. (1991). The Long-Run Performance of Initial Public Offerings. *Contemporary Economics*. The *Journal of Finance* 46(1):3–27.
11. Shuai Shao. (2023). Impact of dual-class share structure: Alibaba IPO success analysis. *Asia Pacific Business Review* 29(2):1–22.
12. James C. Brau & Stanley E. Fawcett. (2006). Initial Public Offerings: An Analysis of Theory and Practice. *The Journal of Finance* 61(1):399–436
13. Nancy Huyghebaert & Cynthia Van Hulle. (2006). Structuring the IPO: Empirical evidence on the portions of primary and secondary shares. *Journal of Corporate Finance*. Volume 12, Issue 2. pp 296–320.
14. Zachary Smith. (2009). An Empirical Analysis of Initial Public Offering (IPO) Performance. 507 Winchester Road Jacksonville, NC 28546. (757) 553–1692.
15. Tim Loughran & Jay Ritter. (2004). Why Has IPO Underpricing Changed Over Time? *Financial Management*. Vol. 33, No. 3 (Autumn, 2004), pp. 5–37
16. Ljungqvist & Wilhelm. (2005). Does Prospect Theory Explain IPO Market Behavior? *Journal of Finance*. 60(4):1759–1790
17. Data from the official website of the republic stock exchange "Tashkent". Retrieved from <https://uzse.uz/>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

